



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITVYI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЙ О’СИШГА ТА’СИРИ	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIYAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
О'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
МАМЛАКАТИМИЗДА ИНВЕСТИТСИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚУЛАЙ БИЗНЕС МУИТИНИНГ ТА'СИРИ.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
О'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	



O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA‘MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Raxmanova Ilmira Rustamovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası magistranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni bank kreditlari bilan ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, mavjud imkoniyatlar hamda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda garov ta‘minotini kengaytirish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilash, kredit tarixini rivojlantirish, foiz stavkalari va kredit muddatlarini biznes ehtiyojlariga moslashtirish hamda hududiy kreditlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada tijorat banklari kredit portfeli, kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari va 2025-yil statistik ma‘lumotlari asosida KOBni moliyalashtirish istiqbollari amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, cash-flow-based lending, raqamli scoring, fintech yechimlar, risk-based pricing, davlat kafolat fondlari, on-lending mexanizmlari, moliyaviy diagnostika va bank–KOB axborot almashinuvini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kichik va o‘rta biznes, bank kreditlari, garov ta‘minoti, cash-flow-based lending, raqamli scoring, fintech, risk-based pricing, davlat kafolat fondi, hududiy kreditlash, bank–KOB hamkorligi.

Abstract. The article provides a scientific and practical analysis of the priority directions for further developing the system of bank lending to small and medium-sized enterprises in Uzbekistan, existing opportunities, and the improvement of lending mechanisms. The study focuses on expanding collateral opportunities, enhancing information exchange efficiency, improving the quality of financial reporting, developing credit histories, aligning interest rates and loan maturities with business needs, and improving regional lending systems. Based on statistical data for 2025, the dynamics of commercial banks’ loan portfolios, and indicators of small business economic activity, the article highlights the prospects for SME financing from a practical perspective. In addition, the study proposes practical recommendations for the development of cash-flow-based lending, digital scoring, fintech solutions, risk-based pricing, state guarantee funds, on-lending mechanisms, financial diagnostics, and bank–SME information exchange systems.

Key words: small and medium-sized enterprises, bank lending, collateral, cash-flow-based lending, digital scoring, fintech, risk-based pricing, state guarantee fund, regional lending, bank–SME cooperation.

Аннотация. В статье с научно-практической точки зрения рассматриваются приоритетные направления дальнейшего развития системы обеспечения малого и среднего бизнеса банковскими кредитами в Узбекистане, существующие возможности, а также вопросы совершенствования механизмов кредитования. Особое внимание уделено расширению залогового обеспечения, повышению эффективности информационного обмена, улучшению качества финансовой отчетности, развитию кредитной истории, адаптации процентных ставок и сроков кредитования к потребностям бизнеса, а также совершенствованию региональной системы кредитования. На основе статистических данных за 2025–год, динамики кредитного портфеля коммерческих банков и показателей экономической активности малого предпринимательства в статье практически раскрываются перспективы финансирования МСБ. Также предлагаются практические рекомендации по развитию кредитования, основанного на денежных потоках, цифрового скоринга, fintech-решений, ценообразования на основе риска, государственных гарантийных фондов, механизмов on-lending, финансовой диагностики и информационного обмена между банками и субъектами МСБ.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, банковские кредиты, залоговое обеспечение, кредитование, основанное на денежных потоках, цифровой скоринг, fintech, ценообразование на основе риска, государственный гарантийный фонд, региональное кредитование, сотрудничество банков и МСБ.



KIRISH

Kichik va o'рта biznes iqtisodiyotning moslashuvchan, yuqori bandlik yaratishga qodir hamda hududiy rivojlanishni faol rag'batlantiruvchi sektori sifatida O'zbekiston iqtisodiy siyosatida ustuvor o'rin egallaydi. Ushbu sektorning barqaror rivojlanishi nafaqat qulay tadbirkorlik muhiti va soliq imtiyozlari, balki moliyaviy resurslarga, ayniqsa bank kreditlariga keng kirish imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bank kreditlari KOB subyektlari uchun aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik va o'рта biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlarini samarali toifalash, bank kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, garovsiz va raqamli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning PF–50-son Farmonida¹ kichik va o'рта biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, o'zini o'zi band qilgan shaxslardan yirik korxonalarigacha bo'lgan barqaror yiriklashuv zanjirini shakllantirish, shuningdek, tijorat banklari orqali kreditlash va zamonaviy moliyaviy xizmatlarni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda KOB subyektlarining bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha muhim amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, garov ta'minotini mustahkamlash, moliyaviy hisobotlar shaffofligini oshirish, kredit tarixini rivojlantirish, axborot almashinuvi samaradorligini kuchaytirish hamda kredit mahsulotlarini biznes ehtiyojlariga moslashtirish yo'nalishlarida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Dissertatsiya materiallarida ham KOBni bank krediti bilan ta'minlashni yanada rivojlantirishda cash-flow-based lending, raqamli scoring, risk-based pricing, davlat kafolatlari va on-lending mexanizmlarining istiqbolli hamda samarali yo'nalish ekani alohida ta'kidlangan.

Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonda kichik va o'рта biznesni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda kreditlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'рта biznesni bank kreditlari bilan ta'minlash masalalari iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida ko'plab iqtisodchi olimlar va xalqaro moliya institutlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, F. Mishkin bank tizimi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, kredit resurslarining samarali taqsimlanishi biznes faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. X. Freixas va J.-C. Rochet esa bank kreditlash tizimida risklarni boshqarish, axborot almashinuvi va kredit monitoringi mexanizmlarining ahamiyatini ilmiy asoslab bergan.

Kreditlash jarayonidagi axborot assimetriyasi muammolari J. Stiglitz va A. Weiss tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular bank va qarzdor o'rtasidagi ma'lumotlar nomutanosibligi kreditlash hajmi hamda foiz stavkalariga bevosita ta'sir qilishini asoslagan. T. Beck va A. Demirgüç-Kunt tadqiqotlarida esa moliyaviy rivojlanish darajasi kichik biznesning kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD, Asian Development Bank va World Bank hisobotlarida KOBni moliyalashtirishda cash-flow based lending, raqamli scoring, fintech yechimlari, davlat kafolat fondlari hamda on-lending mexanizmlarining samaradorligi alohida ta'kidlangan. Mazkur hisobotlarda raqamli texnologiyalar asosida kreditlash tizimini rivojlantirish kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi va hududiy kreditlash samaradorligini oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonda ham kichik va o'рта biznesni qo'llab-quvvatlash, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, PF–50-son Farmonda² kichik va o'рта biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, bank kreditlash tizimini soddalashtirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik va o'рта biznesni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganishda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son <https://www.lex.uz/docs/-7444738>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son <https://www.lex.uz/docs/-7444738>



Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi, xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida KOBni kreditlash holati tahlil qilindi. Shuningdek, tijorat banklari kredit portfeli dinamikasi, NPL ko'rsatkichlari, hududiy kreditlash xususiyatlari va zamonaviy kreditlash mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Tadqiqotda cash-flow based lending, raqamli scoring, risk-based pricing va davlat kafolat mexanizmlarining amaliy ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimida kredit risklarini samarali boshqarishda garov ta'minoti muhim o'rin tutadi. An'anaviy bank kreditlash amaliyotida kredit qarorlari asosan garov qiymati, kredit tarixi va moliyaviy hisobotlarga asoslanadi. Bunday yondashuv bank tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan birga, real pul oqimiga ega bo'lgan kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zaruratini ham ko'rsatadi. Shu jihatdan cash-flow based lending kabi zamonaviy yondashuvlar kreditlash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

KOBni moliyalashtirish tizimida axborot almashinuvi va moliyaviy shaffoflikni rivojlantirish istiqbollari ham yuqori hisoblanadi. Banklar mijozlarning moliyaviy holati, tushum barqarorligi va biznes modeli haqida yanada to'liq ma'lumotga ega bo'lishi orqali kredit risklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, kredit tarixini rivojlantirish hamda raqamli ma'lumotlar bazalarini kengaytirish KOB subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kuchaytiradi.

Kredit mahsulotlarini KOBning real biznes sikliga moslashtirish bugungi kunda dolzarb rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mavsumiy tushumga, sanoat uzoq muddatli investitsiya davriga, xizmatlar sohasi tezkor pul oqimiga, qurilish sohasi esa bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimiga ega. Shu bois kredit muddatlari, qaytarish jadvali va moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida bank xizmatlari va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ham muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bank infratuzilmasi, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari hamda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini hududlarda kengaytirish kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, masofaviy bank xizmatlari va raqamli kreditlash tizimlarining rivojlanishi chekka hududlardagi tadbirkorlar uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Tijorat banklari kredit portfelining barqaror o'sishi bank tizimining iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Jumladan, tijorat banklari kredit portfeli 2024-yil 1-yanvardagi 471,4 trln so'mdan 2026-yil 1-yanvarda 604,0 trln so'mga yetgan. Shu bilan birga, NPL ulushining 2025-yil 1-yanvardagi 4,0 foizdan 2026-yil 1-yanvarda 3,0 foizgacha pasaygani kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish samaradorligi izchil takomillashib borayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. KOBni bank kreditlari bilan ta'minlashdagi asosiy omillar va ularni rivojlantirish imkoniyatlari³

Holat	Iqtisodiy omil	KOB uchun ta'siri	Bank uchun ta'siri
Garov ta'minotini kengaytirish zarurati	KOB aktivlarining likvidligi va rasmiylashtirish darajasi cheklangan	Qo'shimcha moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyoj ortadi	Kredit risklarini ehtiyotkor baholash zarurati yuzaga keladi
Axborot almashinuvini rivojlantirish zarurati	Bank mijoz faoliyati haqida to'liq ma'lumotga ega emas	Individual kredit shartlarini shakllantirish murakkablashadi	Riskni baholash aniqligini oshirish talabi kuchayadi
Moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish ehtiyoji	Hisob yuritish va shaffoflik darajasi yetarli emas	Kredit reytingini yaxshilash imkoniyati yuzaga keladi	Kredit tahlili jarayonini takomillashtirish zarur bo'ladi
Kredit mahsulotlarini biznes sikliga moslashtirish zarurati	Standart kredit mahsulotlari ustunligi	Pul oqimlarini boshqarish ehtiyoji ortadi	To'lov intizomini moslashtirish imkoniyati paydo bo'ladi
Foiz va qo'shimcha xarajatlarni optimallashtirish ehtiyoji	Risk yuqori baholanadi	Moliyaviy yukni kamaytirish zarurati yuzaga keladi	Sifatli mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyati oshadi
Hududiy kreditlashni rivojlantirish zarurati	Bank infratuzilmasi va garov bozori hududlar bo'yicha notekis rivojlangan	Hududlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish talab etiladi	Kredit portfelini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish imkoniyati oshadi

3 Dissertatsiya materiallari, Markaziy bank statistikasi hamda muallifning tahliliy umumlashtirishlari asosida tuzilgan.



Jadval ma'lumotlari KOBni kreditlash tizimida mavjud omillar o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, moliyaviy hisobotlar sifati oshgani sari banklarning mijoz faoliyatini baholash imkoniyatlari kengayadi, bu esa risklarni yanada aniqroq aniqlashga xizmat qiladi. Natijada kreditlash shartlarini optimallashtirish, foiz stavkalarini moslashtirish va garov talablarini takomillashtirish imkoniyatlari ortadi.

Shu bois KOBni moliyalashtirish tizimini rivojlantirishda kreditlash mexanizmlarini modernizatsiya qilish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, kafolat tizimlarini kengaytirish, raqamli baholash usullarini joriy etish hamda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank va KOB o'rtasidagi institutsional hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari

KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash samaradorligi ko'p jihatdan bank va tadbirkor o'rtasidagi institutsional munosabatlar sifatiga bog'liqdir. Zamonaviy yondashuvda bank nafaqat moliyalashtiruvchi institut, balki mijozning pul oqimini tahlil qiluvchi, biznes siklini tushunuvchi, kredit yukini baholovchi hamda moliyaviy maslahat beruvchi strategik hamkor sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday yondashuv KOB subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank–KOB munosabatlarini rivojlantirishdagi muhim yo'nalishlardan biri mijozlarni samarali segmentatsiya qilish hisoblanadi. Boshlang'ich tadbirkor, barqaror kichik biznes, rivojlanayotgan o'rta biznes, eksportchi korxonalar, innovatsion loyiha yoki mavsumiy faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi subyekti turli moliyaviy ehtiyojlarga ega bo'ladi. Shu sababli kredit mahsulotlarini segmentlar kesimida shakllantirish bank xizmatlarining moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Moliyaviy diagnostika va maslahat xizmatlarini rivojlantirish ham KOBni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biridir. Ko'plab tadbirkorlar biznes-reja tuzish, pul oqimi prognozini ishlab chiqish, xarajatlar tarkibini baholash va kreditdan foydalanish samaradorligini aniqlash bo'yicha amaliy ko'makka ehtiyoj sezadi. Banklar tomonidan moliyaviy diagnostika va konsultatsiya xizmatlarining kengaytirilishi kredit arizalari sifatini oshiradi, moliyaviy risklarni kamaytiradi hamda bank va mijoz o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida axborot almashinuvi tizimini rivojlantirish ham kreditlash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli to'lovlar, soliq ma'lumotlari, bank hisobvaraqlari aylanmalari, elektron shartnomalar va kredit tarixining integratsiyalashgan bazasi banklarga tadbirkor faoliyatini yanada aniq baholash imkonini yaratadi. Bu esa scoring tizimlari va zamonaviy kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat, bank va KOB o'rtasidagi hamkorlikni muvozanatli tashkil etish ham kreditlash tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy modelda davlat kredit riskining ma'lum qismini kafolatlash yoki qayta moliyalashtirish mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlaydi, banklar kredit tahlili va monitoring jarayonlarini amalga oshiradi, KOB subyektlari esa moliyaviy shaffoflik va to'lov intizomini ta'minlaydi. Bunday hamkorlik modeli kreditlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Bank–KOB institutsional munosabatlarini rivojlantirish yo'nalishlari⁴

Institutsional yo'nalish	Amaliy holat	Takomillashtirish yo'nalishi
Mijoz segmentatsiyasini rivojlantirish	Kredit mahsulotlarida standart yondashuv ustunligi	KOBni boshlang'ich, barqaror, o'suvchi, eksportchi va innovatsion segmentlarga ajratish
Maslahat xizmatlarini kengaytirish	Kredit arizalarini tayyorlash bo'yicha ehtiyoj mavjud	Moliyaviy diagnostika, biznes-reja va pul oqimi bo'yicha bank konsultatsiyalarini rivojlantirish
Axborot almashinuvi tizimini kuchaytirish	Risklarni baholash uchun qo'shimcha ma'lumotlarga ehtiyoj mavjud	Elektron soliq, bank aylanmasi va to'lov ma'lumotlarini scoring tizimlariga integratsiya qilish
Davlat–bank–KOB hamkorligini rivojlantirish	Risklarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur	Qisman kafolat, bank monitoringi va KOB shaffofligini uyg'unlashtirish
Hududiy xizmatlarni kengaytirish	Chekka hududlarda moliyaviy xizmatlarga talab yuqori	Hududiy bank mahsulotlari, mobil banking va mahalliy tadbirkorlik markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish

Ushbu jadval bank va KOB o'rtasidagi munosabatlar faqat kredit operatsiyasi bilan cheklanib qolmasligini ko'rsatadi. Kreditlash samaradorligi bankning mijoz faoliyatini qay darajada chuqur tushunishi, tadbirkorning moliyaviy axborotni shaffof va sifatli taqdim etishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali tashkil etilishi hamda kredit mahsulotlarining biznes sikliga moslashuvchanligi bilan chambarchas bog'liqdir.

4 Dissertatsiya materiallari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Takomillashtirish yo'nalishlari

KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo'nalish — cash-flow based lending yondashuvini kengaytirishdir. Kredit qarorlarida garov qiymati bilan bir qatorda mijozning bank hisobvaraqlari aylanmasi, soliq to'lovlari, elektron to'lovlari, shartnomaviy tushumlari, pul oqimi va xarajatlar tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv real pul oqimiga ega bo'lgan KOB subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish — raqamli scoring va fintech yechimlarini rivojlantirishdir. Raqamli scoring tizimlari banklarga mijozning kreditga layoqatini tezkor va samarali baholash imkonini beradi. Fintech platformalari esa onlayn ariza topshirish, avtomatik hujjat tekshirish, elektron monitoring va kichik kreditlar bo'yicha tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Uchinchi yo'nalish — risk-based pricing mexanizmlarini takomillashtirishdir. Kredit tarixi, pul oqimi barqarorligi, moliyaviy shaffoflik, tarmoq xususiyatlari va moliyaviy intizom darajasiga qarab differensial foiz stavkalarini qo'llash kreditlash samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv intizomli tadbirkorlarni rag'batlantirish bilan birga, banklar uchun risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

To'rtinchi yo'nalish — davlat kafolat fondlari va qisman kafillik mexanizmlarini rivojlantirishdir. Davlat kafolat fondlari bank risklarini muayyan darajada kamaytirib, KOB subyektlari uchun kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, kredit tahlili, monitoring va pul oqimini baholash tizimlarini rivojlantirish ushbu mexanizmlarning samaradorligini yanada oshiradi.

Beshinchi yo'nalish — on-lending va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirishdir. Uzoq muddatli va nisbatan arzon resurslarni tijorat banklari orqali KOB subyektlariga yo'naltirish investitsion kreditlash hajmini oshirishga xizmat qiladi. Bu model davlat va xalqaro moliya institutlari resurslarini bozor tamoyillari asosida samarali taqsimlash imkonini yaratadi.

Oltinchi yo'nalish — hududiy va tarmoq kredit mahsulotlarini rivojlantirishdir. Qishloq xo'jaligi uchun mavsumiy kreditlar va hosil sug'urtasi, sanoat uchun uzoq muddatli investitsion kreditlar va lizing, xizmatlar sohasi uchun revolving limitlar, eksportchi KOBlar uchun valyuta tushumiga mos kredit liniyalari, ayollar va yoshlar tadbirkorligi uchun kafolatli mikro kreditlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yettinchi yo'nalish — moliyaviy savodxonlik va bank-KOB maslahat tizimini kuchaytirishdir. Tadbirkorlar uchun pul oqimini rejalashtirish, biznes-reja ishlab chiqish, kredit yukini baholash, soliq va bank ma'lumotlarini samarali yuritish bo'yicha amaliy o'quv dasturlarini tashkil etish kreditlash samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, banklarning kredit berishdan oldingi moliyaviy diagnostika xizmatlarini rivojlantirishi mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi (3-jadval).


3-jadval. KOBni bank kreditlari bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'nalishlari⁵

Yo'nalish	Asosiy mexanizm	Kutilayotgan natija
Cash-flow based lending	Bank aylanmasi, soliq va elektron to'lovlar asosida baholash	Garovga qaramlik kamayadi, real pul oqimi hisobga olinadi
Raqamli scoring	AI va algoritmik baholash, kredit tarixi hamda raqamli ma'lumotlardan foydalanish	Kredit qarori tezlashadi, operatsion xarajatlar kamayadi
Risk-based pricing	Risk darajasiga qarab differensial foiz stavkalarini qo'llash	Intizomli qarzdorlar rag'batlantiriladi
Davlat kafolat fondlari	Kreditning bir qismini qisman kafolatlash	Garov ta'minoti bilan bog'liq cheklovlar yumshaydi
On-lending	Uzoq muddatli resurslarni banklar orqali KOBga yo'naltirish	Investitsion kreditlar ulushi oshadi
Hududiy-tarmoq mahsulotlari	Tarmoq va hudud xususiyatlariga mos kredit mahsulotlari	Kredit resurslarining manzilliligi kuchayadi
Moliyaviy diagnostika	Kreditdan oldingi maslahat va pul oqimi tahlili	Kredit arizalari sifati oshadi

5 Dissertatsiya materiallari hamda muallifning ilmiy-amaliy takliflari asosida tuzilgan.


Jadval ma'lumotlari takomillashtirish yo'nalishlari o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, cash-flow based lending raqamli scoring tizimlari bilan, raqamli scoring esa kredit tarixi va elektron ma'lumotlar bazalari bilan uyg'unlashganda kreditlash jarayonining tezkorligi va aniqligi oshadi. Shuningdek, davlat kafolatlari bank monitoringi va KOB subyektlarining moliyaviy shaffofligi bilan birgalikda qo'llanilganda kreditlash tizimining barqarorligi va samaradorligi yanada mustahkamlanadi (1-rasm).

1-rasm. KOBni bank krediti bilan ta'minlashdagi muammolar zanjiri



1-rasm. KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimidagi o'zaro bog'liq omillar

KOBni kreditlash jarayonidagi omillar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi va yagona tizim sifatida shakllanadi. Shu bois kreditlash samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish, raqamli scoring tizimlarini rivojlantirish, kafolat mexanizmlarini kengaytirish, risk-based pricing yondashuvini takomillashtirish hamda maslahat xizmatlarini rivojlantirish o'zaro uyg'un holda amalga oshirilganda KOB subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengayadi (2-rasm).



2-rasm. KOB kreditlash tizimini takomillashtirish mexanizmlari modeli



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda va ushbu jarayonda kredit resurslarini KOBning real pul oqimi, tarmoq xususiyatlari, hududiy sharoiti hamda risk darajasiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, kreditlash jarayonida cash-flow based lending yondashuvini kengaytirish KOB subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Banklar qarzdorni nafaqat garov qiymati, balki real tushumlari, bank aylanmasi, soliq intizomi va biznes modelining barqarorligi asosida baholashi kreditlash samaradorligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, raqamli scoring va fintech yechimlari KOB kreditlash tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar kredit qarorlarini tezlashtirish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, kichik kreditlar bo'yicha operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda chekka hududlardagi tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, risklarni boshqarish tizimini kreditlash hajmi bilan uyg'un rivojlantirish muhimdir. Kredit portfeli barqaror o'sib borishi bilan bir qatorda, stress-testing, portfel diversifikatsiyasi, erta ogohlantirish tizimlari, sug'urta va kafillik mexanizmlarini rivojlantirish kredit portfeli sifatini mustahkamlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, davlat, bank va KOB o'rtasidagi hamkorlikning muvozanatli modeli kreditlash tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Davlat kafolat va qayta moliyalashtirish mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi, banklar kredit tahlili va monitoring funksiyalarini samarali tashkil etadi, KOB subyektlari esa moliyaviy shaffoflik va kredit intizomini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv risklarni ishtirokchilar o'rtasida samarali taqsimlash imkonini yaratadi.

Beshinchidan, hududiy va tarmoq kredit mahsulotlarini rivojlantirish KOB kreditlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar, qurilish, eksportchi KOBlar, ayollar va yoshlar tadbirkorligi turli moliyaviy ehtiyojlarga ega bo'lgani sababli kredit mahsulotlarini tarmoq va hudud xususiyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Shu bois tijorat banklari kredit siyosatini hududiy iqtisodiy salohiyat va tarmoq ehtiyojlari asosida yanada takomillashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy ilmiy-amaliy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda KOBni bank kreditlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish an'anaviy garovga asoslangan kreditlash modelidan pul oqimi, raqamli ma'lumotlar, riskga mos narxlash, davlat kafolatlari va institutsional hamkorlikka asoslangan zamonaviy modelga bosqichma-bosqich o'tishni talab etadi. Mazkur yondashuv KOB subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, banklar uchun kredit portfeli sifatini mustahkamlaydi hamda iqtisodiyotda bandlik, qo'shilgan qiymat, eksport salohiyati va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni. — 2025-yil 19-mart. <https://www.lex.uz/docs/-7444738>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari to'g'risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot. — Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot. — Toshkent, 2026.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: press-reliz. — 2026-yil 26-yanvar.
5. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. — 12th ed. — Boston: Pearson, 2019.
6. Freixas X., Rochet J.-C. *The Economics of Banking*. — 3rd ed. — Cambridge: MIT Press, 2008.
7. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // *American Economic Review*. — 1981. — Vol. 71, № 3. — P. 393–410.
8. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Financing Constraints, Financial Development and Growth // *Journal of Banking & Finance*. — 2006. — Vol. 30, № 11. — P. 2931–2953.
9. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. — Paris: OECD Publishing, 2024.
10. Asian Development Bank. *Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor 2025*. — Manila: ADB, 2025.
11. World Bank. *Small and Medium Enterprises Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions to Unlock Sources of Capital*. — Washington D.C.: World Bank.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
